

Qamchiq dovonida yo'llar tozalanmoqda



A-373 "M-39 Guliston-Bo'ka-Angren-Qo'qon-Andijon orqali-O'sh" avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovonidan o'tgan qismi 193-250 km.lar oralig'ida qor yog'moqda.

Qor yog'ib turgan paytda "Qamchiq" dovonida transport vositalarining beto'xtov, ikki tomonlama harakatlanishini ta'minlash uchun "Qamchiqavtoyol" IYFUK tomonidan yo'llarni qordan tozalash ishlari bajarilmoqda. Transport vositalari ikki tomonlama xavfsiz harakatlanmoqda.

Yo'llarda ko'rinish 600 metrni, havo harorati -6 daraja, namlik 85 foizni tashkil etmoqda. Shamol tezligi 4-8 m/s. "Qamchiq" dovoni yo'lidan yuradigan haydovchilardan barcha xavfsizlik choralarini ko'rishlarini tavsiya qilib qolamiz.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Axborot xizmati